DAVLAT BUDJETINING G‘AZNA IJROSI AHAMIYATI

Jurayeva Mohinur Norqul qizi
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi professori

Received: 16.08.2025
Revised: 17.08.2025
Accepted: 19.08.2025
Key words:
davlat byudjeti, g‘azna ijrosi, moliyaviy boshqaruv, moliyaviy intizom, byudjet mablag‘lari, moliyaviy nazorat, moliyaviy samaradorlik.

Abstract
Ushbu maqolada davlat byudjetining g‘azna ijrosi ahamiyati tahlil qilinadi. G‘azna ijrosi byudjet mablag‘larining samarali va o‘z vaqtida taqsimlanishi hamda nazorat qilinishini ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Maqolada g‘azna ijrosi jarayoni, uning davlat moliyaviy boshqaruvidagi o‘rni va moliyaviy intizomni mustahkamlashdagi roli ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, g‘azna ijrosini takomillashtirish va uni yanada samarali qilish bo‘yicha takliflar taqdim etiladi.

Davlat byudjetini ijro etishning samarali va amaliy mexanizmi, rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko‘ra, Davlat byudjetini g‘azna ijrosi bo‘lib, unda davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari bo‘yicha barcha operatsiyalar G‘aznachilik (maxsus institut) tomonidan, Davlat byudjeti mablag‘lari (shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalarining mablag‘lari) hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari kiritiladigan va xarajatlari to‘lanadigan, boshqariladigan maxsus bank hisobvarag‘ida (Yagona g‘azna hisobvarag‘i) jamlanadi.

Davlat byudjetining g‘azna ijrosini mohiyatini belgilovchi asosiy tushunchalarni izohlashda turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, maqolalar va ba’zi ilmiy ishlarda turli ta’riflar mavjud. Jumladan, rus olimlari S.V.Solonina Davlat byudjetining g‘azna ijrosi bu “byudjetdan mablag‘ oluvchilarning g‘aznachilikda ular uchun ochilgan hisobvaraqlarda byudjet moliyaviy oqimlarining o‘tishi”

(S.V.Solonina.Mesto kaznacheystva v sisteme gosudarstvennogo regulirovaniya ekonomiki Rossii. Avtoreferat na soskaniye k.e.n. 2008.) deb hisoblaydi. A.I.Romanenkovning fikriga ko‘ra, “g‘aznachilik tizimida byudjet mablag‘ini oluvchilarning yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlarni ijro uchun qabul qilish va keyinchalik ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha majburiyatlarini byudjet mablag‘ini oluvchilarning nomidan va ularning topshirig‘iga ko‘ra g‘aznachilik o‘z zimmasiga oladi va amalga oshiradi va bunda u byudjet mablag‘laridan maqsadli foydalanishni ta’minlaydi” (Romanenkov A.I. Federalnoye kaznacheystvo i byudjetnaya reforma. - Pskov, 2000, s.58-59.).

Biroq, yuqorida keltirilgan ta’riflar g‘aznachilik organlari faoliyatining bir tomoni – xarajatlar bo‘yicha byudjet ijrosi haqida fikr yuritish imkonini beradi. Byudjet g‘azna ijrosining quyidagi keltirilgan ta’riflari, bizning nazarimizda, g‘aznachilik organlarining byudjetni ijro etishdagi rolini aks ettiradi. Masalan, I.P.Rudovalning fikriga ko‘ra, byudjet ijrosining g‘azna tizimi «davlat hokimiyati ixtisoslashgan organi yoki mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan byudjet mablag‘larining safarbar etilishi va sarflanishining ta’minlanishi» sifatida tushuniladi, “bunda mazkur organ tushumlarni ro‘yxatga olish, byudjet majburiyatlarining hajmini va ularni qabul qilish muddatlarini tartibga solish hamda yagona byudjet hisobvaraqlaridan to‘lovlarni amalga oshirish kabi mutlaq vakolatlariga ega bo‘ladi” (Rudoval I.P. Pravovoye regulirovaniye kaznacheyskogo ispolneniya byudjeta. - Finansi, №8, 2003, s.25.). Xuddi shunday fikrni P.I.Vaxrin ham bildiradi: “Federal byudjetning g‘azna ijrosida tushumlarni ro‘yxatga olish, byudjet majburiyatlarining hajmini va ularni qabul qilish muddatlarini tartibga solish, byudjet majburiyatlarining ajratilgan limitlari doirasida xarajatlar huquqini beruvchi ruxsat etuvchi yozuvni qo‘yish, federal byudjet mablag‘lari oluvchilarining nomidan to‘lovlarni amalga oshirish vazifasi federal g‘aznachilik organining zimmasiga yuklatiladi”.

Iqtisodchi olim S.I.Gusev esa byudjet g‘azna ijrosini “byudjetdan mablag‘

oluvchilarning olgan majburiyatlarini ijroga qabul qilish va ular nomidan to‘lovlarni maqsadli amalga oshirish” (S.I.Gusev. Razvitiye federalnogo kaznacheystva v sisteme upravleniya gosudarstvennimi finansami. Avtoreferat na soiskaniye d.e.n. 2005.) deb hisoblaydi. Bundan tashqari I.G.Akperov byudjetning g‘azna ijrosi deganda “tushumlarni hisobga olish, byudjet majburiyatlarini hajm va muddatlarini tartibga solish, byudjet majburiyatlari bo‘yicha ajratilgan limitlar doirasida xarajatlarni amalga oshirishga ruxsat va ular nomidan to‘lovlarni amalga oshirish” (I.G. Akperov I.A. Konopleva, S.P. Golovach i dr. «Kaznacheyskaya sistema ispolneniya byudjeta v Rossiyskoy Federatsii», ucheb.posobiye. M.: Finansi i statistika, 2002, - 196 s.) deb tushuntiradi. T.SH.Eshnazarov esa Davlat byudjetining g‘azna ijrosini qo‘yidagicha ta’riflaydi: “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi bu - davlat byudjeti xarajatlariga moliyaviy resurslarni yetarli bo‘lishini taminlash va davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari hisobini olib borilishi borasidagi iqtisodiy munosabatlardir”. Mustaqil mamlakatimiz davlat byudjeti ijrosini zamonaviy axborot texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmasligi va T.SH.Eshnazarovning fikriga qo‘shilgan holda yuqorida keltirilgan ta’riflardan kelib chiqib, bizning nazarimizda, Davlat byudjetining g‘azna ijrosi bu - hisob va axborot texnologiyalari tizimiga asoslangan davlat byudjeti xarajatlariga moliyaviy resurslarni yetarli bo‘lishini taminlash va davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari hisobini olib borilishi borasidagi iqtisodiy munosabatlardir.

Shuning bilan bir qatorda shuni ta’kidlash joizki, mamlakatimiz Byudjet kodeksida byudjetning g‘azna ijrosiga ta’rif berilmagan, bizning fikrimizcha esa byudjetning g‘azna ijrosi to‘g‘risida ta’rif O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksida o‘z aksini topishi kerak. Shu bilan bir qatorda, davlat byudjetining ijrosida uning kassa ijrosi, ya’ni tushumlar va to‘lovlar hisob-kitobi muhim o‘rin tutadi, shuningdek, u davlat byudjeti ijrosining markaziy qismi hisoblanadi.